DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-06-06-52 Pages: 487-499

Oriental Journal of Philology

ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about

UZBEK–ENGLISH CODE-SWITCHING IN DIGITAL MEDIA TEXTS: GRAMMATICAL FORMS, COMMUNICATIVE FUNCTIONS AND DIAGNOSTIC CRITERIA

Mukaddas Irgashevna Israil
Professor, University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan
Doctor of Philological Sciences (DSc)
E-mail: mukaddas26israil@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: code-switching, digital media, Uzbek, English, bilingualism, contextual analysis, intersentential switching, insertion, matrix language, language choice.

Received: 25.10.26
Accepted: 26.10.26
Published: 27.10.26

Abstract: The article examines the grammatical forms and communicative functions of Uzbek–English code-switching in digital media texts by means of contextual analysis. The material comprises a public LinkedIn post about a technology project, an informational article on the IT Park website and a news item published by Kun.uz. Drawing on the interactional approach of J. Gumperz and P. Auer, the structural typologies of S. Poplack, C. Myers-Scotton and P. Muysken, and research on networked multilingualism, the author proposes a four-step diagnostic procedure that separates code-switching proper from loanwords, translation glosses and retained proper names. The analysis distinguishes intersentential switching, in which an independent English utterance closes the post and invites the audience to follow further updates, from intrasentential insertion, in which an English noun phrase naming a professional group is embedded in the Uzbek matrix frame with Uzbek plural and postposition. It is shown that neither the presence of a foreign item nor its combination with an Uzbek affix is sufficient to determine its status. A typology of four bilingual phenomena and an annotation scheme for an Uzbek–English digital media corpus are proposed. The findings are limited to a qualitative analysis of the selected materials.

RAQAMLI MEDIA MATNLARIDA O‘ZBEK–INGLIZ KOD ALMASHINUVI: GRAMMATIK SHAKLLAR, KOMMUNIKATIV VAZIFALAR VA FARQLASH MEZONLARI

Mukaddas Irgashevna Israil
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti professori
filologiya fanlari doktori (DSc)
E-mail: mukaddas26israil@gmail.com
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: kod almashinuvi, raqamli media, o‘zbek tili, ingliz tili, ikki tillilik, kontekstual tahlil, gaplararo almashinuv, kiritish, matritsa til, til tanlovi.

Annotatsiya: Maqolada raqamli media matnlarida o‘zbek va ingliz tillari o‘rtasidagi kod almashinuvining grammatik shakllari va kommunikativ vazifalari kontekstual tahlil metodi asosida o‘rganiladi. Tadqiqot materiali sifatida texnologik loyiha haqidagi ommaviy LinkedIn posti, IT Park saytidagi axborot materiali va Kun.uz nashridagi xabar tanlangan. J. Gampers va P. Auerning interaksion yondashuvi, Sh. Poplak, K. Mayers-Skotton va P. Myoyskenning struktur tasniflari hamda tarmoq ko‘p tilliligi tadqiqotlariga tayanib, muallif kod almashinuvini o‘zlashma so‘z, tarjimaviy izoh va asl shaklda saqlangan atoqli nomdan farqlovchi to‘rt bosqichli tashxis tartibini taklif etadi. Tahlilda mustaqil inglizcha murojaat postni yakunlab, auditoriyani keyingi xabarlarni kuzatishga undaydigan gaplararo almashinuv hamda kasbiy guruhni nomlovchi inglizcha birikma o‘zbekcha ko‘plik qo‘shimchasi va ko‘makchi bilan o‘zbekcha matritsa qurilmaga kiritiladigan gap ichidagi kiritish farqlanadi. Xorijiy birlikning mavjudligi yoki o‘zbekcha qo‘shimcha qabul qilishi uning maqomini belgilash uchun yetarli emasligi ko‘rsatiladi. Ikki tillilikning to‘rt hodisasi tipologiyasi va o‘zbek–ingliz raqamli media korpusi uchun belgilash sxemasi taklif qilinadi. Natijalar tanlangan materiallarning sifat tahlili doirasida umumlashtiriladi.

УЗБЕКСКО-АНГЛИЙСКОЕ ПЕРЕКЛЮЧЕНИЕ КОДОВ В ТЕКСТАХ ЦИФРОВЫХ МЕДИА: ГРАММАТИЧЕСКИЕ ФОРМЫ, КОММУНИКАТИВНЫЕ ФУНКЦИИ И КРИТЕРИИ РАЗГРАНИЧЕНИЯ

Мукаддас Иргашевна Исраил
профессор Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана
доктор филологических наук (DSc)
E-mail: mukaddas26israil@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: переключение кодов, цифровые медиа, узбекский язык, английский язык, двуязычие, контекстуальный анализ, межфразовое переключение, вставка, матричный язык, языковой выбор.

Аннотация: В статье методом контекстуального анализа исследуются грамматические формы и коммуникативные функции переключения кодов между узбекским и английским языками в текстах цифровых медиа. Материалом служат публичная публикация в LinkedIn о технологическом проекте, информационный материал сайта IT Park и сообщение издания Kun.uz. Опираясь на интеракциональный подход Дж. Гамперца и П. Ауэра, структурные типологии Ш. Поплак, К. Майерс-Скоттон и П. Мёйскена, а также на исследования сетевого многоязычия, автор предлагает четырёхэтапную диагностическую процедуру, отграничивающую собственно переключение кодов от заимствований, переводных пояснений и сохранённых имён собственных. Разграничиваются межфразовое переключение, при котором самостоятельное английское высказывание завершает публикацию и побуждает аудиторию следить за новостями, и внутрифразовая вставка, при которой английское словосочетание, называющее профессиональную группу, встраивается в узбекскую матричную рамку с узбекским аффиксом множественного числа и послелогом. Показано, что ни наличие иноязычной единицы, ни присоединение к ней узбекского аффикса не являются достаточными для определения её статуса. Предложены типология четырёх явлений двуязычия и схема разметки узбекско-английского корпуса цифровых медиа. Результаты ограничены качественным анализом выбранных материалов.

Kirish. Raqamli kommunikatsiya muhitida turli tillarga mansub birliklarning bir matn yoki muloqot doirasida qo‘llanishi til tanlovi va nutqning ijtimoiy xususiyatlarini o‘rganish uchun muhim tadqiqot maydoniga aylandi. Internet nashrlari, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va ulardagi izohlarda mualliflar axborot yetkazish, munosabat bildirish hamda auditoriya bilan aloqa o‘rnatishda turli lisoniy resurslardan foydalanadi. O‘zbek tilidagi raqamli media matnlarida ingliz tiliga mansub so‘z, birikma va gaplarning uchrashi ham ana shu kommunikativ ehtiyojlar bilan

bog‘liq. Bunda inglizcha birlikning mavjudligini qayd etishning o‘zi yetarli emas: uning matnga kiritilish sababi, boshqa birliklar bilan munosabati va muayyan vaziyatda bajaradigan vazifasini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Kod almashinuvi deganda ikki yoki undan ortiq til yoxud til variantining bir kommunikativ hodisa doirasida navbatlashib qo‘llanishi tushuniladi [1; 2]. O‘zbek va ingliz tillari misolida bu hodisa o‘zbekcha matn tarkibiga inglizcha ibora yoki gapning kiritilishi, ketma-ket jumlalarda tilning o‘zgarishi yoxud muloqotning muayyan bosqichida boshqa tilga o‘tilishi shaklida namoyon bo‘ladi. Biroq matnda uchraydigan har qanday inglizcha so‘zni kod almashinuvi deb baholash metodologik jihatdan to‘g‘ri emas. Tilga o‘zlashgan birliklar, mahsulot va tashkilot nomlari, bevosita iqtiboslar hamda muallifning boshqa tilga o‘tishi o‘rtasidagi farqlar kontakt lingvistikasida uzoq vaqtdan beri muhokama qilinib kelinadi [3; 4]. Ayniqsa, o‘zbek tilidek agglyutinativ tilda alohida so‘z shaklidagi qo‘llanishlarni tasniflashda ularning grammatik moslashuvi, kontekstdagi o‘rni va nutqiy vazifasini birgalikda hisobga olish talab etiladi.

Raqamli media matnlarida kod almashinuvining sotsiolingvistik ahamiyati til tanlovi bilan ijtimoiy munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi [5; 6]. Muallifning ingliz tiliga murojaat qilishi kasbiy sohaga daxldorlikni ko‘rsatish, muayyan guruh bilan yaqinlik o‘rnatish yoki xalqaro axborot manbasiga ishora qilish vositasi bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, til almashinuvi auditoriyaga moslashish, muayyan fikrni ajratib ko‘rsatish yoki muloqot ohangini o‘zgartirishga ham xizmat qiladi. Bu vazifalarni oldindan belgilangan xususiyatlar sifatida qabul qilish o‘rniga, har bir qo‘llanishni matndagi dalillar asosida izohlash zarur, chunki bir xil inglizcha ifoda turli janr va vaziyatlarda turlicha ma’no va ta’sir hosil qilishi mumkin: axborot xabarida boshqa tildagi jumla manba nutqini saqlashga, shaxsiy blogda muallif munosabatini ifodalashga, reklama matnida esa mahsulot taqdimotiga xizmat qiladi.

O‘zbek tilshunosligida inglizcha o‘zlashmalar asosan leksikologik va terminologik jihatdan, ya’ni lug‘at tarkibining boyishi nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Raqamli media matnlaridagi o‘zbek–ingliz tillar navbatlashuvini grammatik, pragmatik va sotsiolingvistik mezonlar asosida farqlab tahlil qilish esa hali yetarli darajada amalga oshirilmagan. Faqat xorijiy birliklar ro‘yxatini tuzish muallifning til tanlovini tushuntirib bera olmaydi; inglizcha ifodalarning mavjudligi asosida auditoriyaning til bilish darajasi yoki matnning ta’sirchanligi haqida qat’iy xulosa chiqarish ham asossizdir. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeini mustahkamlash va uning zamonaviy kommunikatsiyadagi qo‘llanish doirasini kengaytirishga qaratilgan islohotlar sharoitida raqamli media tilini ilmiy kuzatish alohida ahamiyat kasb etadi. Mavzuning dolzarbligi ana shu omillar bilan belgilanadi.

Maqolaning maqsadi o‘zbek va ingliz tillari ishtirokidagi raqamli media matnlarida kod almashinuvining namoyon bo‘lish shakllari va kommunikativ vazifalarini aniqlash hamda uni

yondosh hodisalardan farqlash mezonlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot quyidagi savollarga javob izlaydi: 1) o‘zbekcha raqamli matnlarda tillar almashinuvi qaysi struktur shakllarda namoyon bo‘ladi; 2) inglizcha bo‘lak qanday grammatik maqomga ega bo‘ladi va o‘zbekcha qurilmaga qanday birikadi; 3) kod almashinuvini o‘zlashma, tarjimaviy izoh va atoqli nomni saqlashdan qaysi belgilar asosida farqlash mumkin. Tadqiqotning ilmiy yangiligi o‘zbek–ingliz raqamli materialiga tatbiq etilgan to‘rt bosqichli tashxis tartibi, ikki tillilikning to‘rt hodisasi tipologiyasi va korpus uchun belgilash sxemasining taklif etilishida ko‘rinadi.

Adabiyotlar sharhi. Raqamli media matnlarida o‘zbek–ingliz kod almashinuvini o‘rganish uchun tillar navbatlashuvining kommunikativ vazifalari, grammatik tuzilishi va raqamli muhitga bog‘liq xususiyatlarini birgalikda hisobga olish zarur. Shu jihatdan interaksion sotsiolingvistika, struktur tipologiya va kompyuter vositasidagi kommunikatsiya tadqiqotlari maqolaning nazariy asosini tashkil etadi. Ushbu ishlardagi misollar turli til juftliklariga tegishli bo‘lib, o‘zbek–ingliz materialini tahlil qilishga yo‘nalish beradi, biroq ularni o‘zbek tiliga oid empirik dalil sifatida qabul qilib bo‘lmaydi.

J. Gampers “Discourse Strategies” asarida kod almashinuvini bir nutqiy almashinuv doirasida turli grammatik tizimlarga mansub nutq bo‘laklarining yonma-yon kelishi sifatida izohlaydi va tilning o‘zgarishini muloqotning borishi hamda ishtirokchilarning o‘zaro munosabati bilan bog‘laydi [1]. Asarda Kaliforniyadagi ikki tilli mutaxassislarning xayrlashuv suhbati keltiriladi: bir ishtirokchi “Well, I’m glad I met you” (“Siz bilan tanishganimdan xursandman”) deb murojaat qiladi, ikkinchisi esa “Andale pues” (bu vaziyatda “Xo‘p, yaxshi”) deya ispancha javob beradi. Misolda tilning o‘zgarishi suhbat uzilganini anglatmaydi: inglizcha murojaat va ispancha javob yagona kommunikativ hodisani tashkil qiladi. Gampersning kontekstuallashtirish belgisi tushunchasi o‘zbekcha postga inglizcha javob yozilgan holatlarni o‘rganishda ham qo‘llanishi mumkin; bunda javobning oldingi xabarga mazmuniy aloqasi va muloqotdagi vazifasi tekshiriladi.

P. Auer ushbu yondashuvni rivojlantirib, kod almashinuvini ketma-ketlik tahlili asosida o‘rganishni taklif etgan va diskursga bog‘liq almashinuv (matn tuzilishini, masalan, mavzu o‘zgarishi yoki yakunlovchi murojaatni belgilash) hamda ishtirokchiga bog‘liq almashinuv (so‘zlovchining til afzalliklari va imkoniyatlarini aks ettirish)ni farqlagan [7]. Bu farqlash o‘zbekcha matn yakunida kelgan inglizcha murojaatni talqin qilishda muhim: uni muallifning til bilimi bilan emas, balki matnning tuzilishini belgilovchi diskursiv vosita sifatida izohlash imkonini beradi.

Sh. Poplakning “Sometimes I’ll Start a Sentence in Spanish y Termino en Español: Toward a Typology of Code-Switching” maqolasi kod almashinuvining tuzilishiga oid asosiy tadqiqotlardan biridir [8]. Maqola nomining o‘zi inglizcha va ispancha qismlardan tashkil topgan

bo‘lib, “Ba’zan gapni ispan tilida boshlab, ispan tilida tugataman” mazmunini anglatadi. Muallif gaplararo, gap ichidagi va teg (qo‘shimcha unsur) almashinuvlarini ajratadi. Bu tasnif tillar navbatlashuvini faqat alohida so‘z darajasida emas, balki gapning tarkibiy qismlari o‘rtasida ham tekshirish zarurligini ko‘rsatadi. Biroq ingliz–ispan materialida kuzatilgan grammatik munosabatlarni o‘zbek–ingliz juftligiga bevosita ko‘chirib bo‘lmaydi: o‘zbek tilining SOV so‘z tartibi va qo‘shimchalar tizimi alohida hisobga olinishi kerak.

K. Mayers-Skottonning matritsa til modeli aynan shu jihatdan qimmatlidir [9]. Model bo‘yicha aralash gapda grammatik qolipni belgilovchi matritsa til va unga mazmuniy birliklarni beruvchi kiritiluvchi til ajratiladi; so‘z tartibi va tizimli morfemalar (ko‘plik, kelishik qo‘shimchalari, ko‘makchilar) matritsa tildan olinadi. O‘zbekcha gapga inglizcha ot yoki birikma kiritilib, unga o‘zbekcha qo‘shimcha va ko‘makchi qo‘shilgan holatlarni tavsiflashda bu model aniq tahlil apparatini beradi. P. Myoysken esa ikki tilli nutqdagi aralashuvning uch shaklini – kiritish, navbatlashuv va kongruent leksikallashuvni ajratadi [10]. Kiritishda bir tilga mansub birlik boshqa tilning grammatik tuzilishiga joylashadi; navbatlashuvda turli tillarga mansub nisbatan mustaqil bo‘laklar ketma-ket keladi; kongruent leksikallashuv esa umumiy grammatik tuzilmaning ikki til leksik vositalari bilan to‘ldirilishini anglatadi. Bu tasnif raqamli matnda kuzatiladigan barcha aralash shakllarni bir xil hodisa sifatida baholashning oldini oladi.

Kod almashinuvining raqamli muhitdagi xususiyatlari Y. Androutsopulos tadqiqotlarida yoritilgan. “Networked Multilingualism” maqolasida Germaniyadagi yunon kelib chiqishiga ega yetti nafar o‘quvchining Facebookdagi til amaliyotlari o‘rganilib, raqamli yozuv sharoiti, internet resurslaridan foydalanish va tarmoq auditoriyasiga yo‘nalish ko‘p tilli kommunikatsiyaning o‘zaro bog‘liq omillari sifatida ko‘rsatiladi [6]. Kuzatuvlar til tanlovi foydalanuvchi, janr va muloqot vaziyatiga qarab farqlanishini ochib beradi. Muloqotlardan birida foydalanuvchi yunoncha nutqdan teleserial nomini berish uchun inglizchaga, so‘ng shu nom haqidagi metalingvistik izoh uchun nemischaga o‘tadi. Bu kuzatuv muhim metodologik farqni belgilaydi: inglizcha asar yoki mahsulot nomining keltirilishi bilan muallifning mustaqil inglizcha fikr ifodalashi alohida qayd etilishi lozim. Muallifning kompyuter vositasidagi kommunikatsiyada kod almashinuviga bag‘ishlangan sharhida esa yozma raqamli muloqotda almashinuv grafik vositalar, yozuv tanlovi va platforma imkoniyatlari bilan ham bog‘liq ekani ta’kidlanadi [5]. Demak, til tanlovining vazifasini oldindan belgilab qo‘yish o‘rniga, uni har bir muloqot vaziyatida aniq matn dalillari asosida aniqlash lozim.

Kod almashinuvini o‘zlashmadan farqlash masalasi Sh. Poplak, D. Sankoff va K. Millerning tadqiqotida izchil ishlab chiqilgan: ular o‘zlashuvni qo‘llanish chastotasi, fonologik, morfologik va sintaktik moslashuv hamda jamoa tomonidan qabul qilinish darajasi bilan bog‘liq bosqichli jarayon sifatida ko‘rsatadi [3]. M. Haspelmat esa o‘zlashma so‘zni til tizimiga kirib, bir

tilli nutqda ham qo‘llanadigan birlik sifatida ta’riflab, uni kod almashinuvidan qo‘llanishning barqarorligi va jamoa miqyosidagi tarqalishi orqali farqlashni taklif etadi [4]. Ko‘rib chiqilgan adabiyotlar bir-birini to‘ldiradi: Gampers va Auer kommunikativ vazifaga, Poplak va Mayers-Skotton almashinuvning tuzilishiga, Myoysken aralashuv shakllarini farqlashga, Androutsopulos esa raqamli janr va auditoriya sharoitlariga e’tibor qaratadi. Ular asosida o‘zbek–ingliz media matnlarini tahlil qilishda uch masala izchil tekshirilishi lozim: tillar almashinuvi qayerda yuz bergani, boshqa tildagi bo‘lak qanday grammatik maqomga egaligi va muayyan kontekstda qanday vazifa bajarayotgani.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda kontekstual tahlil metodi qo‘llanildi. U raqamli media matnlarida o‘zbek–ingliz kod almashinuvini matndagi o‘rni, mazmuniy aloqalari va kommunikativ vazifasi asosida o‘rganishga yo‘naltirildi. Tadqiqot materiali sifatida uch xil janrga mansub matnlar tanlandi: texnologik loyiha haqidagi ommaviy LinkedIn posti, IT Park saytidagi xorijiy tadbirkorlarga mo‘ljallangan inglizcha axborot materiali va Kun.uz nashridagi xabar [11–13]. Materiallarning elektron manzili va janri qayd etildi; manbada sana mavjud bo‘lgan hollarda e’lon qilingan sana ham ko‘rsatildi. Bir xil matnning takroriy nusxalari mustaqil material sifatida hisobga olinmadi. Tanlanma sifat tahliliga mo‘ljallangan bo‘lib, umumiy qo‘llanish chastotasini ifodalamaydi; materiallar janr jihatidan farqli holatlarni qiyoslash imkonini berishi uchun maqsadli tanlandi.

Tahlil birligi sifatida tillar almashinuvi kuzatilgan jumla yoki o‘zaro mazmunan bog‘langan xabarlar ketma-ketligi olindi. Har bir holat adabiyotlar sharhida ko‘rib chiqilgan yondashuvlarga tayangan to‘rt bosqichli tashxis tartibi asosida tekshirildi (1-jadval). Kod almashinuvining fikrni ta’kidlash, mazmunni takroran tushuntirish, murojaatni o‘zgartirish, munosabat bildirish yoki media manbasiga ishora qilish kabi ehtimoliy vazifalari kontekstdagi belgilar asosida baholandi. Muallifning niyati va auditoriyaning munosabati haqida matnda tasdiqlanmagan xulosalar chiqarilmadi; tasnifi noaniq holatlar alohida qayd etildi.

1-jadval. Raqamli matnda inglizcha birlikning maqomini aniqlash tartibi (muallif ishlanmasi)

Bosqich	Tekshiriladigan savol	Belgilar	Natija
1. Manba	Birlik muallif nutqiga tegishlimi yoki iqtibos, asar, mahsulot yoki tashkilot nomimi?	Qo‘shtirnoq, katta harf, asl nomga havola, kontekstdagi nomlash	Nom yoki iqtibos bo‘lsa – referensial qo‘llanish
2. Metalingvistik vazifa	Birlik tarjima yoki izoh bilan yonma-yon berilganmi?	“=” belgisi, qavsdagi tarjima, “ya’ni”, o‘rgatuvchi kontekst	Tarjimaviy izoh

Bosqich	Tekshiriladigan savol	Belgilar	Natija
3. Struktur maqom	Bo‘lak mustaqil gapmi yoki matritsa til qurilmasiga kiritilganmi?	Gap chegarasi; o‘zbekcha qo‘shimcha va ko‘makchilar; so‘z tartibi	Gaplararo almashinuv yoki gap ichidagi kiritish
4. O‘zlashuv darajasi	Birlik bir tilli o‘zbekcha nutqda barqaror qo‘llanadimi?	Turli mualliflar va janrlarda takrorlanish, lug‘atlarda qayd etilishi, o‘zbekcha yozilish	O‘zlashma yoki vaqtinchalik kiritma (korpusda tekshiriladi)

Tartibning o‘ziga xosligi shundaki, unda grammatik moslashuv yagona mezon sifatida olinmaydi. Inglizcha birlikning o‘zbekcha qo‘shimcha olishi uning o‘zbekcha qurilmaga kiritilganini ko‘rsatadi, biroq o‘zlashma ekanini isbotlamaydi; bu masala faqat to‘rtinchi bosqichda, kengroq material asosida hal qilinadi [3; 4]. Natijalar tanlangan misollarning sifat tavsifi shaklida umumlashtirildi.

Natijalar. Kontekstual tahlil o‘zbek va ingliz tillarining birgalikda qo‘llanishi tanlangan materiallarda to‘rt xil hodisa sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi: mustaqil inglizcha murojaat, o‘zbekcha gapga inglizcha birikmaning kiritilishi, tarjimaviy izoh va asar nomini asl shaklda saqlash. Ular quyida tashxis tartibi asosida ketma-ket ko‘rib chiqiladi.

Gaplararo kod almashinuvi va auditoriyaga murojaat. E. Sharofaddinovning VoiceLab loyihasiga bag‘ishlangan LinkedIn postida asosiy ma’lumotlar o‘zbek tilida bayon qilinib, yakunda “Stay tuned!” murojaati qo‘llangan [11]. Ifoda kontekstda “Yangiliklarni kuzatib boring!” mazmunini bildiradi. U muallif nutqiga tegishli, tarjima bilan berilmagan va oldingi o‘zbekcha jumlaning grammatik tarkibiga kirmaydi, balki mustaqil kommunikativ birlik sifatida postni yakunlaydi. Shu sababli bu holat gaplararo kod almashinuvi sifatida talqin qilinadi. Auer tasnifiga ko‘ra u diskursga bog‘liq almashinuvdir [7]: inglizcha murojaat axborot berishdan auditoriyani keyingi xabarlarni kuzatishga undashga o‘tishni, ya’ni matnning yakunlovchi qismini belgilaydi. Uning kuzatiladigan vazifasi kommunikativ aloqani davom ettirishga chaqirishdir; inglizcha ifodaning o‘zbekcha muqobildan kuchliroq ta’sir qilishi esa matnning o‘zi bilan tasdiqlanmaydi.

Bu misol kod almashinuvini faqat lug‘aviy ehtiyoj bilan tushuntirish yetarli emasligini ham ko‘rsatadi. “Stay tuned!” uchun o‘zbekcha muqobil mavjud bo‘lsa-da, muallif inglizcha shaklni tanlagan. Kontekstual jihatdan bu tanlovni raqamli taqdimotni yakunlovchi, raqamli taqdimotlarda qo‘llanadigan qisqa yakunlovchi formula sifatida izohlash mumkin. Biroq muallifning aynan nima sababdan ingliz tiliga o‘tganini aniqlash uchun qo‘shimcha ma’lumot – muallifning boshqa

postlari yoki auditoriya izohlari zarur. Shuning uchun til tanlovi sabablari faqat matnda kuzatiladigan dalillar asosida izohlanishi, qo‘shimcha ma’lumotlarsiz umumlashtirilmasligi lozim.

Gap ichidagi kiritish va grammatik moslashuv. Shu postda “content creator’lar uchun” birikmasi ham uchraydi [11]. Inglizcha *content creator* birikmasiga o‘zbekcha ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilib, undan keyin o‘zbekcha *uchun* ko‘makchisi kelgan. Matritsa til modeli nuqtai nazaridan bu yerda o‘zbek tili matritsa til vazifasini bajaradi: ko‘plik qo‘shimchasi (tizimli morfema) va ko‘makchi o‘zbekcha, mazmuniy birlik esa inglizcha [9]. Inglizcha nomlash birligi o‘zbekcha gapning sintaktik qurilmasiga kiritilgan bo‘lib, Myoysken tasnifidagi kiritish shakliga mos keladi [10]. Uning kontekstdagi vazifasi loyiha xizmatlari mo‘ljallangan kasbiy guruhni nomlashdan iborat.

Mazkur holatda yozuv belgisi ham diqqatga sazovor: qo‘shimcha inglizcha asosdan apostrof bilan ajratilgan (creator’lar). Raqamli yozma nutqda bunday grafik ajratish muallifning birlikni hali to‘liq o‘zlashmagan xorijiy asos sifatida qabul qilishini ko‘rsatuvchi belgi bo‘lishi mumkin; Androutsopulos ham raqamli kod almashinuvida grafik vositalarning ahamiyatini ta’kidlaydi [5]. Biroq birgina misol asosida ushbu birikmaning barqaror o‘zlashma yoki vaqtinchalik nutqiy kiritma ekanini qat’iy belgilab bo‘lmaydi: buning uchun tashxis tartibining to‘rtinchi bosqichi – turli mualliflar va janrlardagi qo‘llanishlarni o‘rganish talab etiladi. Postdagi tashkilot va mahsulot nomlarini (VoiceLab) kasbiy guruhni bildiruvchi birikma bilan bir xil tahlil birligi sifatida hisoblash ham mumkin emas, chunki ular birinchi bosqichdayoq atoqli nom sifatida ajratiladi.

Tarjimaviy izoh va kod almashinuvining chegarasi. IT Park saytining xorijiy tadbirkorlar uchun O‘zbekistonda yashash va ishlash sharoitlariga bag‘ishlangan inglizcha materialida “Rahmat = Thank you” juftligi berilgan [12]. Bu yerda matritsa til ingliz tili bo‘lib, o‘zbekcha birlik unga kiritilgan. Biroq uning vazifasi muallifning muloqot davomida boshqa tilga o‘tishidan farq qiladi: so‘z tarjima ekvivalenti bilan “=” belgisi orqali yonma-yon berilib, o‘quvchiga mahalliy tilda qo‘llash mumkin bo‘lgan ifoda sifatida tanishtirilgan. Demak, bu metalingvistik, ya’ni tilning o‘zi haqida ma’lumot beruvchi qo‘llanishdir. Uni kod almashinuvi sifatida umumlashtirish turli hodisalarni birlashtirib yuboradi. Bu farq ingliz tilini o‘rgatishga oid postlar, ikki tilli lug‘atlar va tarjimali e’lonlarni tahlil qilishda ham hisobga olinishi lozim. Shu bilan birga, misol o‘zbek tilining xorijiy auditoriyaga mo‘ljallangan materiallarda mahalliy madaniyat bilan tanishtirish vositasi sifatida qo‘llanishini ko‘rsatadi.

Asar nomining saqlanishi va referensial vazifa. Kun.uz saytining 2015-yil 23-sentabrdagi xabarida “Happy Birthday to You” inglizcha qo‘shiq nomi sifatida qo‘llangan [13]. Birlik o‘zbekcha jumla tarkibida kelgan, biroq muallif o‘quvchini ingliz tilida tabriklamaydi, balki muhokama qilinayotgan asarni asl nomi bilan ko‘rsatadi. Shunday qilib, inglizcha ifoda

referensial, ya’ni muayyan obyektni aniq belgilash vazifasini bajaradi va tashxis tartibining birinchi bosqichida ajratiladi. Uning tashqi shakli inglizcha bo‘lishi bu holatni kommunikativ kod almashinuvi sifatida baholash uchun yetarli emas.

Tahlil qilingan holatlar va ularning tashxis tartibidagi o‘rni 2-jadvalda umumlashtirildi.

2-jadval. Tanlangan materiallarda o‘zbek–ingliz ikki tilliligi hodisalari tipologiyasi

Misol	Matritsa til va struktur maqom	Hal qiluvchi bosqich	Hodisa turi	Aniqlangan vazifa
Stay tuned! [11]	Mustaqil inglizcha gap o‘zbekcha post yakunida	3-bosqich	Gaplararo kod almashinuvi	Auditoriyani keyingi xabarlarni kuzatishga undash; matn yakunini belgilash
content creator’lar uchun [11]	O‘zbek matritsa qurilmasiga kiritilgan inglizcha birikma; o‘zbekcha ko‘plik qo‘shimchasi va ko‘makchi	3-bosqich (4-bosqich ochiq)	Gap ichidagi kiritish	Kasbiy guruhni nomlash
Rahmat = Thank you [12]	Inglizcha matnda o‘zbekcha birlik, tarjima bilan	2-bosqich	Tarjimaviy izoh	Mahalliy til ifodasini tushuntirish va o‘rgatish
Happy Birthday to You [13]	O‘zbekcha xabarda saqlangan asar nomi	1-bosqich	Atoqli nomni saqlash	Muayyan qo‘shiqni aniq ko‘rsatish

Tanlangan misollar kod almashinuvini aniqlashda xorijiy birlikning mavjudligidan tashqari, uning manbasi, grammatik maqomi va nutqiy vazifasini tekshirish zarurligini ko‘rsatdi. Mustaqil inglizcha murojaatda kommunikativ harakatning o‘zgarishi kuzatilsa, gap ichidagi kiritmada ikki til vositalarining matritsa til qoidalari asosida grammatik birikishi namoyon bo‘ladi. Tarjima juftligi va asar nomida esa izohlash hamda aniq nomlash vazifalari ustuvordir.

Muhokama. Olingan natijalar kontakt lingvistikasidagi ikki asosiy yondashuvni o‘zbek–ingliz materialida uyg‘unlashtirish zarurligini tasdiqlaydi. Struktur yondashuv [8–10] almashinuvning qayerda va qanday yuz berganini aniqlash imkonini beradi, biroq nima uchun yuz berganini tushuntirmaydi; interaksion yondashuv [1; 7] esa vazifani ochib beradi, biroq struktur tasnifsiz turli hodisalarni bir xil baholash xavfini saqlaydi. Taklif etilgan tashxis tartibi ikkala

yondashuvni ketma-ket qo‘llashga asoslanadi: avval referensial va metalingvistik qo‘llanishlar ajratiladi, so‘ng struktur maqom aniqlanadi va shundan keyingina vazifa talqin qilinadi.

O‘zbek tilining agglyutinativ tuzilishi bu jarayonda alohida ahamiyatga ega. Inglizcha asosga o‘zbekcha qo‘shimchaning qo‘shilishi kiritilgan bo‘lakning matritsa qurilmaga birikkanini aniq ko‘rsatadi va Mayers-Skotton modelining o‘zbek materialida yaxshi ishlashini tasdiqlaydi [9]. Ayni paytda raqamli yozuvda qo‘shimchani apostrof yoki chiziqcha bilan ajratish (creator’lar, content-creatorlar) yoki qo‘shib yozish kabi turli grafik variantlar uchrashi mumkin. Bu variantlar o‘zlashuv darajasining bilvosita belgisi bo‘lishi mumkin va kelgusidagi korpus tadqiqotlarida alohida o‘lchanishi maqsadga muvofiq [3].

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uch yo‘nalishda ko‘rinadi. Birinchidan, taklif etilgan tartib o‘zbek–ingliz raqamli media korpusini belgilash (annotatsiya) uchun asos bo‘lishi mumkin: har bir inglizcha birlik uchun manba turi (muallif nutqi, iqtibos, nom), metalingvistik belgi, struktur maqom (gaplararo, gap ichidagi, teg), matritsa til, grammatik moslashuv belgilari (qo‘shimcha, ko‘makchi, yozilish shakli) va vazifa (diskursiv, referensial, izohlovchi, nomlovchi) qayd etiladi. Ikkinchidan, jurnalistika ta’limida va tahririyat amaliyotida bu mezonlar media matnlaridagi xorijiy birliklardan maqsadga muvofiq foydalanishni baholash, ularni o‘zbekcha muqobil yoki izoh bilan berish zarurligini aniqlashga yordam beradi. Uchinchidan, natijalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son Farmonida belgilangan o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini oshirish vazifalarini ilmiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi [14]: ular davlat tilining raqamli muhitdagi qo‘llanish doirasini kuzatish, xorijiy atamalarning o‘zbekcha muqobillarini ishlab chiqish va media matnlarida ulardan izchil foydalanish ishlariga ilmiy material beradi.

Tadqiqotning cheklovlari ham mavjud. Tahlil uch manbadagi to‘rt holatga asoslangan sifat tadqiqoti bo‘lib, kod almashinuvining umumiy tarqalishi, chastotasi yoki auditoriyaga ta’siri haqida xulosa chiqarish imkonini bermaydi. Muallif niyati va o‘quvchi munosabatini aniqlash uchun izohlar, so‘rovlar yoki suhbatlar kabi qo‘shimcha ma’lumotlar zarur. Shu sababli taklif etilgan tipologiya va belgilash sxemasi kengroq, janrlar bo‘yicha muvozanatlashtirilgan korpusda sinovdan o‘tkazilishi lozim.

Xulosa. Raqamli media matnlarida o‘zbek va ingliz tillarining birgalikda qo‘llanishini kontekstual tahlil qilish kod almashinuvining grammatik shakli va kommunikativ vazifasini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish zarurligini ko‘rsatdi. Tanlangan materiallarda mustaqil inglizcha murojaat orqali auditoriyani keyingi xabarlarni kuzatishga undash (gaplararo almashinuv) hamda o‘zbekcha gap tarkibiga inglizcha birikmani kiritish orqali kasbiy guruhni nomlash (gap ichidagi kiritish) holatlari aniqlandi. Birinchi holatda inglizcha ifoda matn tuzilishini belgilovchi diskursiv vosita, ikkinchisida esa o‘zbek matritsa qurilmasiga birikkan mazmuniy birlik vazifasini bajaradi.

Tarjima ekvivalentlari va asar nomlarining tahlili ikki tilning bir matnda mavjudligi har doim kommunikativ kod almashinuvini anglatmasligini ko‘rsatdi: “Rahmat = Thank you” juftligida tushuntirish, “Happy Birthday to You” nomida esa muayyan asarni aniq ko‘rsatish vazifasi ustuvordir. Shuningdek, inglizcha birlikning o‘zbekcha qo‘shimcha qabul qilishi uning o‘zbekcha qurilmaga kiritilganini ko‘rsatadi, ammo barqaror o‘zlashma ekanini tasdiqlamaydi.

Tadqiqot natijasida kod almashinuvini o‘zlashma, tarjimaviy izoh va atoqli nomni saqlashdan farqlovchi to‘rt bosqichli tashxis tartibi, ikki tillilikning to‘rt hodisasi tipologiyasi va korpus uchun belgilash sxemasi taklif etildi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu vositalarni janrlar bo‘yicha muvozanatlashtirilgan o‘zbek–ingliz raqamli media korpusida sinash, grafik moslashuv variantlari va o‘zlashuv darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni miqdoriy o‘rganish hamda muloqot ishtirokchilarining munosabatini aks ettiruvchi ma’lumotlar asosida til tanlovi sabablarini aniqlash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gumperz J.J. Conversational Code Switching // Discourse Strategies. – Cambridge: Cambridge University Press, 1982. – P. 59–99. – DOI: 10.1017/CBO9780511611834.006

2. Gardner-Chloros P. Code-switching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – 242 p. – DOI: 10.1017/CBO9780511609787

3. Poplack S., Sankoff D., Miller C. The Social Correlates and Linguistic Processes of Lexical Borrowing and Assimilation // Linguistics. – 1988. – Vol. 26, № 1. – P. 47–104.

4. Haspelmath M. Lexical Borrowing: Concepts and Issues // Loanwords in the World’s Languages: A Comparative Handbook / ed. by M. Haspelmath, U. Tadmor. – Berlin; New York: De Gruyter Mouton, 2009. – P. 35–54. – DOI: 10.1515/9783110218442.35

5. Androutsopoulos J. Code-switching in Computer-Mediated Communication // Pragmatics of Computer-Mediated Communication / ed. by S.C. Herring, D. Stein, T. Virtanen. – Berlin; Boston: De Gruyter Mouton, 2013. – P. 667–694.

6. Androutsopoulos J. Networked Multilingualism: Some Language Practices on Facebook and Their Implications // International Journal of Bilingualism. – 2015. – Vol. 19, № 2. – P. 185–205. – DOI: 10.1177/1367006913489198

7. Code-Switching in Conversation: Language, Interaction and Identity / ed. by P. Auer. – London; New York: Routledge, 1998. – 355 p.

8. Poplack S. Sometimes I’ll Start a Sentence in Spanish y Termino en Español: Toward a Typology of Code-Switching // Linguistics. – 1980. – Vol. 18, № 7–8. – P. 581–618. – DOI: 10.1515/ling.1980.18.7-8.581

9. Myers-Scotton C. Duelling Languages: Grammatical Structure in Codeswitching. – Oxford: Clarendon Press, 1993. – 263 p.

10. Muysken P. Bilingual Speech: A Typology of Code-Mixing. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 306 p.

11. Sharofaddinov E. Aisha AI endi – VoiceLab // LinkedIn. – Ommaviy post. – URL: https://www.linkedin.com/posts/elzodxon_aisha-ai-endi-voicelab-insonlar-orasidagi-activity-7498106189600317440-tfav

12. Living and Working in Uzbekistan as a Foreign Founder: What to Expect // IT Park. – 29.01.2026. – URL: https://www.it-park.uz/en/itpark/news/living-and-working-in-uzbekistan-as-a-foreign-founder-what-to-expect

13. AQSh sudi Happy Birthday to You qo‘shig‘ini mualliflik huquqlaridan “ozod qildi” // Kun.uz. – 23.09.2015. – URL: https://kun.uz/news/2015/09/23/aqsh-sudi-happy-birthday-to-you-qoshigini-mualliflik-huquqlaridan-%E2%80%9Cozod-qildi%E2%80%9D

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/4561730